



ARTICLE INFO

Received: 06th February 2023
Accepted: 15th February 2023
Online: 16th February 2023

KEY WORDS

Malakali o'qituvchi, innovatsion infratuzilma, ta'lim texnologiyalari, ta'lim dasturi, ta'lim kampusi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM MUASSASALARI TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Xaydarov Ozodjon Yunusali o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti tyutori
haydarovozzbek658@gmail.com

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p3-82>

ABSTRACT

Mamlakatimizda hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarining soni 199 tani tashkil qilib, ulardan 114 tasi davlat, 85 tasi xorijiy va nodavlat ta'lim dargohlaridir¹. Bundan ko'rinib turibdiki, OTMlar miqyosida ham bugungi kunga kelib raqobat maydoni yuzaga kelgan. Ushbu vaziyatda faqatgina sifatli ta'lim berish yo'li orqali universitetlar orasida o'z o'rnini mustahkam egallash mumkinligi kun sayin ravshanlashib bormoqda. Quyidagi maqolada ham yurtimizda rivojlanib borayotgan ta'lim sohasida oliy ta'lim muassasalarining talabalarga ta'lim berish sifatini oshirishga qaratilgan ayrim taklif va tavsiyalar o'rin olgan.

Bugungi kunga kelib talabalarning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilinganidan so'ng hech qancha vaqt o'tmasdan ushbu ta'lim dargohini tashlab ketishi oddiy holga aylanib bormoqda. To'g'ri, ayrim talabalarning o'qishini tashlab ketishi yoki boshqa o'qishga ko'chirishi uning shaxsiy yoki oilaviy muammolari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Lekin ular orasida ta'lim sifatining pastligi uchun ta'lim dargohini o'zgartirayotgan yoki tashlab ketayotganlar ham bot-bot uchrab turibdi.

Aksariyat talabalar yuqori sifatli ta'lim olishga intilishadi. O'z talabalarining bilim olish darajasini va ular kontingentini yildan yilga yuqorilatib borishni istovchi universitetlar esa ayrim usullardan foydalanishadi.

Malakali o'qituvchilarni universitetda ta'lim berish jarayonlariga jalb qilish.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim olish jarayonlariga ko'proq e'tibor qaratilgani sababli oliy ta'lim muassasalari soni va unga mutanosib ravishda o'z mutaxassisligi bo'yicha OTM larni tamomlagan kadrlar soni ham oshib bormoqda. Lekin ular orasidan eng munosib va malakali shaxsni tanlab olish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu omil universitetning ta'lim berish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Malakali o'qituvchi – o'z talabasining e'tiborini jalb qila oladigan va dars mashg'ulotlarini qiziqarli va ma'rifiy qila oladigan kishidir.

Universitetda ishlayotgan oddiy o'qituvchi yoki professor bo'lishidan qat'iy nazar ta'lim sifatini oshirish uchun ushbu standartlarga javob berishiga ishonch hosil qilish zarur, ya'ni,

¹ <https://stat.edu.uz/>



o'qituvchini yollash uchun universitetdagi o'qituvchilik lavozimiga da'vogarlarini tanlash jarayonida bir qator bosqichlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Misol tariqasida birgina B.Britaniyada o'qituvchilikka nomzodlarga qo'yilgan talabalar orasida ularning o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari (GPA), ta'lim olgan dargohidan tavsiyanoma, darsdan tashqari yo'lga qo'yilgan seminarlar, amaliyotda erishgan yutuqlari va boshqa omillar ham mavjud².

Mamlakatimizda ham o'qituvchilikka nomzodlarni saralashda ba'zi bosqichlarni yo'lga qo'yish ta'lim sifatini oshirishga o'z hissasini qo'shishi mumkin. Masalan, shunday bosqichlardan biri nomzodni dastlabki o'rganish, ya'ni, hujjatlarni yig'ish, dastlabki suhbat jarayonidir. Bunda nomzodning o'zi o'qigan ta'lim dargohidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari, dars mashg'ulotlaridagi ishtiroki, ustoz-murabbiylari va talabalar bilan munosabatlarda o'zaro hurmatning qay darajada bo'lganligi kabi sifatlar hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Keyingi bosqich – o'qituvchilikka nomzodning mutaxassislikka doir bilimlarni qay darajada egallaganligini va uning psixosotsionallik barorlik darajasini aniqlashga qaratilgan test bosqichi. Ushbu bosqichdan muvaffaqiyatli o'tgan va o'qituvchilikka munosib ko'rilayotgan nomzodni so'ngi attestatsiya, ya'ni, professor o'qituvchilardan iborat tarkibda tuzilgan komissiya bilan suhbat jarayonini tashkil qilish orqali universitetda o'qituvchi bo'lib ishlash istagini bildirgan nomzodlar orasidan eng maqbul shaxslarni tanlab olish.

Yuqorida keltirib o'tilgan tanlovning ayrim bosqichlarini yo'lga qo'yish malakali o'qituvchilarni ishga yollashga imkon yaratadi.

Talabalarning universitetda erishgan natijalarini baholash va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish ustida ishlash. Universitetda ta'lim sifatini oshirish uchun talabalarning faoliyatini ko'rib chiqish zarur. Talabalarning qo'lga kiritayotgan natijalari ta'lim tizimining ularni o'qitishda qanchalik samarali ekanligining aniq dalilidir. Agar ularning natijalari ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, ushbu ta'lim tizimini saqlab qolish kerak. Biroq, ta'lim tizimi yaxshilanishga muhtoj bo'lsa, ushbu tizimda nima ishlamayotganini ko'rib chiqish va uni bartaraf etish choralarini ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Buning uchun biroz tahlil qilish va qaysi usullar to'g'ri va qaysi usullar noto'g'ri ekanligini ko'rib chiqish lozim. Masalan, universitet ta'lim dasturini o'zgartirish va yangi o'quv dasturlarini joriy qilish yoki o'qituvchilar tarkibiga yangi amaliyotlarni kiritish kerak. Joriy qilish mumkin bo'lgan yangiliklar qanday bo'lishidan qat'iy nazar, shuni yodda tutish kerakki, buning maqsadi talabalarning ta'lim sifatini oshirishi va nimanidir o'rganishi uchun ularning o'quv jarayonini yaxshilashdan iborat bo'lishi lozim.

Talabalarning dars jarayonidan tashqari qo'shimcha ta'lim olishlari uchun imkoniyat yaratish. Talabalarning ta'lim olishi dars jarayonidan so'ng ham to'xtamaydi. Universitetning talabalarni dars jarayonidan bo'sh vaqtlarida ilm o'rganishga undaydigan turli xil dasturlar va tadbirlarda ishtirok etishini ta'minlashi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Talabalarga darsdan tashqari ta'lim olish, o'rganish imkoniyatini berish ularga shaxs sifatida o'sishga va darslarda o'rgangan ba'zi narsalarni amaliyotda qo'llashga imkon beradi. Bundan tashqari, talabalarning qo'shimcha ta'lim olishlari uchun to'garaklar, klublar, seminarlar va amaliyotlarni tashkil qilish mumkin, bu yerda talabalar o'qish tajribasini kengaytirish uchun qo'shimcha mashg'ulotlarning o'zi tanlagan turlaridan biriga qo'shilishi mumkin. Shuningdek,

² <https://acuityinsights.com/admissions/4-factors-to-consider-in-teacher-candidates/>



ushbu o'rganish tajribasini osonlashtirishda yordam berish uchun turli tashkilotlar bilan hamkorlik qilish mumkin.

Yurtimizning ayrim universitetlarida talabalarning darsdan keyingi bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga va yangi bilimlarni egallashga yordam beruvchi klublar va seminar treninglar tashkil qiluvchi universitetlar ham yo'q emas. Misol tariqasida Toshkent davlat yuridik universitetini keltirish mumkin. Universitetda hozirga kunda "Bo'lajak prokurorlar", "Adliya", "Bo'lajak notariuslar", "Adkovatlar", "Yosh diplomatlar" singari bir qancha klublar tashkil qilinib, tegishli tashkilotlar bilan universitet tomonidan kelishuvlar mavjud³. Universitet talabalari o'zlari a'zo bo'lgan klublar doirasida dars mashg'ulotlaridan so'ng amaliyotga yo'naltirilib, o'zining nazariy bilimlarini amaliyot bilan birgalikda olib bormoqdalar kelajakdagi karyeralari uchun muhim qadamlarni tashlamoqda.

Fikr yakunida shuni aytish mumkinki, qo'shimcha ta'lim olish uchun talabalarga ushbu imkoniyatlarni taqdim etish ularning keyingi hayotlarida o'z karyeralarida yordam beradigan insonlar bilan aloqa o'rnatish imkoniyatini beradi. Dars jarayonida va undan tashqarida o'rganishni rag'batlantiradigan universitet, albatta, yuqori sifatli ta'lim maskanidir.

Ta'lim berish usullarini takomillashtirish. Dunyo bilan hamqadam bo'lish uchun universitetlarning talabalariga o'z vaqtida va tegishli ta'lim berish uchun o'qitishning zamonaviy usullarini joriy qilishi zarur. O'qitish usullarini yaxshilash uchun bevosita auditoriyalarda o'tilayotgan dars jarayonini hamda universitetda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning dars o'tish usullarini, metodikasini ko'zdan kechirish lozim. Aynan ushbu yo'l orqali o'qituvchilarning ta'lim berish usullaridagi kamchiliklar yoki yutuqlar haqida batafsil ma'lumot olish va ushbu asosda ta'lim berish metodikasini o'zgartirish lozim bo'lganlarni o'zgartirish zarur. O'z navbatida o'qituvchining faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni va ularga biriktirilgan talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ham tekshirish maqsadga muvofiqdir.

O'qitish usullarini takomillashtirishga yordam beradigan yana bir usul – o'qituvchilar o'z talabalari bilan do'stona, ammo shu o'rinda o'zaro ustoz shogirt an'alariga amal qilgan holatda professional munosabatlarni yaratishdir. Ba'zan o'z professor o'qituvchilari bilan yaxshi munosabatda bo'lish talabalarning o'quv va darsdan tashqari faoliyatini yaxshilash uchun kerak bo'ladi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi keskinlikning yo'qligi ta'lim olish uchun qulay bo'lgan muhitni yaratadi.

Innovatsion infratuzilma va texnologiyalarni joriy etish. Universitet ta'lim sifatini oshirishning yana bir sinalgan usuli – texnologik yutuqlarni joriy qilish va ta'lim kampusida raqamli ta'limni joriy qilish uchun zamonaviy jihozlarga ega bo'lishdir.

Texnologiyadan foydalanish samarali va qiziqarli ta'lim turiga imkon beradi. Innovatsion texnologiyani universitetda ta'lim dasturiga qo'shishning bir usuli - bu nafaqat eng yaxshi kompyuterlar yoki uskunalarni sotib olish, balki ijtimoiy mediadan foydalangan holatda talabalarni dars mashg'ulotlariga ko'proq jalb qilishdir.

Bundan tashqari universitetning infratuzilmasini yaxshilash ham talabalar uchun katta amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunga oddiy misol tariqasida dars mashg'ulotlari o'tiladigan auditoriyalarni faqatgina mutaxassislikka doir ko'rgazmalar bilan emas, balki,

³ <https://www.tsul.uz>



estetik jihatdan yoqimli ko'rgazmalar bilan bezatish orqali ham ularga yaxshi kayfiyat baxsh etish kerak va bu o'z navbatida talabaga o'tilayotgan darslarni yaxshiroq qabul qilish imkonini berishi mumkin.

Ta'lim sifatini odimiy yaxshilash va nazorat qilish. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan tashqari, universitetdagi ta'lim sifatini oshirish uchun har bir universitet tomonidan amalga oshirish mumkin bo'lgan eng oddiy usul uni eng yaxshi holatda saqlashdir. Universitetning qolgan oliy ta'lim muassasalari ichida eng namunali bo'lib qolishi uchun har doim qaysi jihatlari ustunlik keltirgan bo'lsa, uni yaxshilashda davom etish va saqlash zarur. U o'qitish tizimida, texnologiyada yoki universitet kampus madaniyatida bo'ladimi, uni har doim eng samarali va qiziqarli darajalariga moslash lozim. Ta'lim sifatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim standartlarni universitetda qay darajada amal qilinayotganini doimiy tarzda kuzatib borish kerak.

Dunyo o'zgargan sari, yangi bilimlarni o'rgatish va o'rganish kerak, shuning uchun mos ravishda universitetlarning ta'limi tizimi moslashish va yangi dasturlar va kurslarni ishlab chiqish orqali bundan foydalanishi, raqobat yuzaga kelgan ta'lim dunyosida o'zining mustahkam o'rnini yo'qotmasligi zarur.

Shunday qilib, talabalarga eng yaxshi ta'lim tajribasini taqdim etish mumkin. Universitetning barcha jihatlarini takomillashtirish ta'lim dargohi brendini yuqori sifatli ta'lim bilan sinonimga aylantiradi.

References:

1. <https://stat.edu.uz/>
2. <https://acuityinsights.com/admissions/4-factors-to-consider-in-teacher-candidates/>
3. <https://www.tsul.uz>
4. <https://idea.uzedu.uz/uz/category/>
5. <https://yoshlarforumi.uz/uz/idea/category/umumiy-orta-orta-maxsus-professional-va-oliy-talim-muassasalari-faoliyati>
6. <https://kun.uz/uz/news/2020/04/19/ozbekistonda-talim-sifatini-oshirishga-nimalar-tosiq-bolmoqda-tahliliy-suhbat>.
7. Normuratov, A. (2022). PROBLEMS AND PROSPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN MODERN SOCIETY. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 465-468.
8. Normuratov, A. (2022). Ma'muriy yustitsiya tushunchasi va uning jamiyatdagi ahamiyati. Jamiyat Va Innovatsiyalar, 3(11/S), 214-218. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss11/S-pp214-218>.
9. Dilboboev, N. (2022). Issues for Enforcement of Decisions of the International Investment Arbitration on Interim Measures. Available at SSRN 4299453.
10. Shavkatugli, D. N. (2022). Conciliation as a Means of Adr Vs Arbitration and Mediation. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 430-436.